

## Salovati sharif aytishning fazilati



19:20 / 29.12.2018 77143

### ***Ey, farzand!***

Ayniqsa, juma kuni ko'p salovat aytish kerak. Kim juma kuni yuz marta salovat aytsa, Alloh uning yuzta tilak-istagini o'rinlatadi. Bu tilaklarning o'ttizi dunyo, yetmishi oxirat uchundir.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

**«Har kun yuz marta salovati sharif keltirgan kishi mahshar maydonining chidab bo'lmas issig'idan qutiladi. O'sha dahshatli kunda arsh soyasida men bilan birga bo'ladi!».**

Kim bir marta salovati sharif aytsa, Alloh o'sha salovati sharif hurmatiga bir farishta yaratadi, u qiyomatgacha o'sha kishi uchun Allohdan mag'firat tilaydi. Yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

**«Kim menga kunda uch marta salovat aytsa, uning o'sha kun qilgan gunohlari kechiriladi!».**

***Ey, farzand!***

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'p eslamog, u zotga ko'p salovati shariflar aytmoq zarur. Salovati shariflar aytmoqqa davom etgan kishi xo'rlanmaydi va qashshoqlik ko'rmaydi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Uch toifa kishining qo'lga kiritgan narsasida barokat bo'lmaydi va qayda bo'lsa xo'rlanadi. Bular:

- 1.** Mening nomimni eshitganda salovati sharif aytmagan.
- 2.** Ramazon oyiga hurmat ko'rsatmagan, ro'za tutmagan, taroveh namozini o'qimagan.
- 3.** Ota-onasi tirik bo'la turib, ularni xursand qilmagan.

***"Ey farzand!" китобидан***